

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Madad Invest Bank" ATB

Объявление

"MADAD INVEST BANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

"MADAD INVEST BANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

**"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki
aksiyadorlari diqqatiga!**

**Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish
to'g'risida**

"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini 2024 yil 15 -fevral kuni, soat 11:00 da, Farg'ona shahri, S.Temur ko'chasi, 71-uyda joylashgan "STROY MONTAJ INVEST" MChJ ma'muriy binosining majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Yig'ilish kun tartibi:

1. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankining Kuzatuv kengashi ayrim a'zolarining vakolatini muddatidan ilgari tugatish.
3. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankining vakolati muddatidan ilgari tugatilgan ayrim Kuzatuv kengashi a'zolarining o'rniga yangi Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.
4. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankining joylashgan yerini (pochta manzilini) o'zgartirish .
5. "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga o'zgartirish kiritish.

"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashining 2024-yil 23-yanvardagi majlisi qaroriga asosan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida aksiyadorlarni xabardor qilish uchun bank aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 23-yanvar kuni holatiga tuziladi va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 09-fevral kuni holatiga tuziladi.

Bank aksiyadorlarini va yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2024-yil 15-fevral kuni soat 10:00 dan 10:50 gacha davom etadi.

Aksiyadorlar o'zlari bilan shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda ularning vakillaridan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'yicha ma'lumotlar bilan Farg'ona shahri, Mustaqillik ko'chasi, 312-uyda joylashgan "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankida tanishishingiz mumkin. Bankning elektron pochta manzili:info@madadinvestbank.uz.

Ma'lumotuchun telefonlar: **+998-73-241-70-31, +998-73-241-70-39.**

Bank Kuzatuv kengashi

23.01.2024

Источник: <https://openinfo.uz/en/announce/16707/>

Дата: 07.05.2026